

# QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



# Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2018-2023 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda






### Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **32688** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **431** taga ko'paygan yoki **1,3 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,3** birlikni tashkil qildi.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar - martida **2143** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,5 %** ga kam demakdir.

## 2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **32688** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2143** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **6161** tani yoki jamiga nisbatan **18,8 %** ni tashkil etdi.

## 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, 1- aprel holatiga, birlikda**



2023- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **9,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan **0,1** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **21,2** birlik, Shaxrisabz shahrida **12,1** birlik, Muborak tumanida **11,4** birlik, Mirishkor tumanida **11,2** birlik, Nishon tumanida **10,3** birlikka yetdi.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\***

Qarshi sh.	21,2
Shahrisabz sh.	12,1
Muborak	11,4
Mirishkor	11,2
Nishon	10,3
Dehqonobod	9,3
Koson	8,7
G'uzor	8,5
Kitob	8,4
Yakkabog'	8,3
Qamashi	8,1
Qarshi	8,0
Kasbi	7,6
Chiroqchi	6,3
Shaxrisabz	6,1
Ko'kdala	4,7

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori  
ko'rsatkich

Qarshi shahar – 21,2 birlik.

O'rtacha  
ko'rsatkich

Nishon tumani – 10,3 birlik.

Eng past  
ko'rsatkich

Ko'kdala tumani – 4,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **21,2** birlik, Shahrisabz shahrida **12,1** birlik, Muborak tumanida **11,4** birlik, Mirishkor tumanida **11,2** birlik, Nishon tumanida **10,3** birlik, Dehqonobod tumanida **9,3** birlik, Koson tumanida **8,7** birlik, G'uzor tumanida **8,5** birlik, Kitob tumanida **8,4** birlik kuzatildi.

2023- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Qarshi  
shahri  
21,2

Shahrisabz  
shahar  
12,1

Muborak  
tumani  
11,4

Mirishkor  
tumani  
11,2

Nishon  
tumani  
10,3


Dehqonobod  
tumani  
9,3

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
244	Qarshi sh.	256
83	Shahrisabz sh.	92
113	G'uzor	153
138	Dehqonobod	114
128	Qamashi	125
129	Qarshi	139
141	Koson	170
129	Kitob	125
108	Mirishkor	97
53	Muborak	59
60	Nishon	183
97	Kasbi	191
	Ko'kdala	88
142	Chiroqchi	78
91	Shahrisabz	92
108	Yakkabog'	181

## 2023- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – **12,2 %**, Kasbi tumani – **8,9 %**, Nishon tumani – **8,5 %**, Yakkabog' tumani – **8,4 %**, Koson tumani – **7,9 %**, G'uzor tumani – **7,1 %**, Qarshi tumani – **6,5 %** hissalariga to'g'ri keldi.




# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **644** ta, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **459** ta hamda sanoatda **321** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida **256** ta, Kasbi tumanida **191** ta hamda Nishon tumanida **183** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2023 yillar davomida jami **9968** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3132** (yoki **31,4 %**) ta, Savdo sohasida **3003** ta (yoki **30,1 %**), Sanoat sohasida – **1703** ta (yoki **17,1 %**), Xizmatlar sohasida **1528** ta (yoki **15,3 %**), va Qurilish sohasida – **602** ta (yoki **6,0 %**) tashkil etilgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko'p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so'ngi 3 yilda eng ko'p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo'nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>		
Danakli va po'choqli urug'i bo'lgan mevalar etishtirish	535	20,8
Aralash qishloq xo'jaligi	428	16,6
Qorako'l zotlilardan tashqari qo'ylarni ko'paytirish	283	11,0
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish	151	5,9
Qorako'l zotli qo'ylarni ko'paytirish	146	5,7
<b>Sanoat</b>		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	171	16,5
Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	74	7,1
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	73	7,1
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	66	6,4
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	695	6,3
<b>Qurilish</b>		
Turar joy binolarini qurish	108	35,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	66	21,9
Yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	65	21,6
Elektrotexnik va montaj ishlari	15	5,0
Yo'llar va shosselar qurish	9	3,0
<b>Savdo</b>		
Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	556	28,1
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	233	11,8
Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	190	9,6
Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	146	7,4
Ixtisoslashmagan do'konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	137	6,9
<b>Xizmatlar sohasi</b>		
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo'yicha xizmatlar	178	16,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	118	11,1
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	115	10,8
Avtomobil transportida yuk tashish	91	8,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat	40	3,7

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2049 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **23,3 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikataj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2023- yil yanvar-martida Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023 yil yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **56,9 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **1,7** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,9 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **96,9 %** ni, yo'lovchi tashishda **95,3 %** ni, savdoda **80,9 %** ni, qurilishda **60,8 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1418,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**250,4** mlrd. so'm), Chiroqchi (**126,9** mlrd. so'm), Qarshi (**126,0** mlrd. so'm), Kasbi (**114,7** mlrd. so'm) va Koson (**113,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Mirishkor tumanida (**43,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da**






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **22,2 %** ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (**100,0 %**), Shahrisabz shahri (**83,3 %**), Chiroqchi tumani (**68,0 %**), Qamashi tumani (**62,5 %**), Shahrisabz tumani (**51,0 %**), Koson tumani (**49,8 %**), Muborak tumani (**43,7 %**), Yakkabog' tumani (**37,7 %**), Qarshi shahri (**34,3 %**), Qarshi tumani (**29,2 %**) va Kitob tumanida (**23,6 %**) ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2023- yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1015,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **60,8 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil Yanvar-mart oylariga nisbatan **106,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri **314,1** (mlrd. so'm), G'uzor (**103,8** mlrd. so'm), Qarshi (**102,1** mlrd. so'm), Chiroqchi (**76,2** mlrd. so'm), Kitob (**64,0** mlrd. so'm), Koson (**61,4** mlrd. so'm) hamda Nishon (**51,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1032,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **33,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **82,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qarshi shahri (**595,5** mlrd. so'm), Qarshi (**555,8** mlrd. so'm), Koson (**464,0** mlrd. so'm), Kitob (**368,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**362,2** mlrd. so'm), Yakkabog' (**277,3** mlrd. so'm) hamda Muborak (**245,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ hajm, mlrd. so'm ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3230,8** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,9** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **103,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Kitob (**279,3** mlrd. so'm), G'uzor (**269,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**267,2** mlrd. so'm), Koson (**265,7** mlrd. so'm), Yakkabog' (**249,5** mlrd. so'm) hamda Shaxrisabz (**242,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




## 2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati


2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3201,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **80,9** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **100,6** % ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm



2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**889,8** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**314,4** mlrd. so'm), Koson (**234,1** mlrd. so'm), Qamashi (**232,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**193,3** mlrd. so'm) va Kitob (**186,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2806,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **68,1** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil Yanvar-mart oylariga nisbatan **110,1** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**485,1** mlrd. so'm), Koson (**254,6** mlrd. so'm), Kitob (**243,7** mlrd. so'm), Qarshi (**209,4** mlrd. so'm), Mirishkor (**184,6** mlrd. so'm), Muborak (**175,7** mlrd. so'm) va Yakkabog' (**162,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.

Ulushi, %da




## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **27,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **31,9 %** ini tashkil etdi.

## 2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




■ hajmi ■ foizi

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shaxrisabz shaxri, Dehqonobod va Ko'kdala tumanlarida – **100,0 %**, Kitob tumanida – **99,9 %**, Shaxrisabz tumanida – **84,9 %**, Muborak tumanida – **84,2 %**, Koson tumanida – **81,6 %**, Qamashi tumanida - **75,0 %** va G'uzor tumanida – **60,5 %**. Eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **0,6 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **27,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **63,5** % ini tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Shahrisabz, Ko'kdala va Mirishkor tumanlarda – **100** %, Chiroqchi tumanida – **98,2** %, Qamashi tumanida – **87,3** %, Qarshi tumanida – **84,8** %, Kitob tumanida – **83,4** %, Yakkabog' tumanida – **82,3** % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk  
tashishda

2023- yil yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,9 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,4 %** ni tashkil qildi.




Yuk  
aylanmasida

2023- yil yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,3 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi  
tashishda

2023- yil yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi  
aylanmasida

2023- yil yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, *birlikda*




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1019** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **665 (65,3 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **275 (27,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **79 (7,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,8 % (406 ta)**, xizmatlar sohasida – **23,4 % (238 ta)**, sanoatda – **13,2 % (135 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,7 % (129 ta)**, qurilishda – **10,9 % (111 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (**198** ta), Kitob tumani (**94** ta), Shahrisabz shahri (**83** ta), Qarshi tumani (**63** ta) hissasiga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **65,3 %** ni, sanoatda – **60,0 %** ni, savdo sohasida – **59,8 %** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **44,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **36,5 %** ni, savdoda – **35,9 %** ni, sanoatda – **33,3 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **6,2 %** ni, Xizmatda – **6,0 %** ni, qurilishda – **4,7 %** ni tashkil etdi.

## 2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

### Barcha faoliyat turlari bo'yicha



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Xizmatda – 67,2 % ni, Savdo sohasida – 66,7 % ni, Qurilish sohasida – 63,1 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi – Sanoatda 28,9 % ni, Savdo sohasida – 27,1 % ni, Xizmat sohasida – 26,5 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi Savdo sohasida – 12,6 % ni, Qishloq xo'jaligida – 5,9 % ni, sanoatda – 8,1 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	66,2	25,9	7,9
Band bo'lganlar soni	58,6	35,0	6,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	63,3	29,7	7,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	59,6	33,5	6,9
Raqobat muhiti	67,3	27,9	4,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	73,4	22,7	3,9
Band bo'lganlar soni	63,4	33,8	2,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	67,2	29,4	3,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	64,4	31,9	3,7
Raqobat muhiti	72,6	25,7	1,7


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli